


## 2022- yilning yanvar-iyunida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 68 703,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 7,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,6 % ga yetdi.




## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>56 337,0</b>	<b>68 703,4</b>	<b>107,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	50 621,9	61 442,6	107,4
mahsulotlarga sof soliqlar	5 715,1	7 260,8	111,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>50 621,9</b>	<b>61 442,6</b>	<b>107,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>21 512,0</b>	<b>26 826,7</b>	<b>107,9</b>
sanoat	16 843,9	20 688,1	107,6
qurilish	4 668,1	6 138,6	109,0
<b>xizmatlar</b>	<b>29 109,9</b>	<b>34 615,9</b>	<b>107,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 673,2	9 318,7	108,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 121,3	7 549,0	117,4
boshqa xizmat tarmoqlari	15 315,4	17 748,2	102,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 23 806,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 % ga yuqoridir.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 89,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,7% ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 56,3 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,9	89,4
mahsulotlarga sof soliqlar	10,1	10,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>42,5</b>	<b>43,7</b>
sanoat	33,3	33,7
qurilish	9,2	10,0
<b>xizmatlar</b>	<b>57,5</b>	<b>56,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,2	15,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,1	12,3
boshqa xizmat tarmoqlari	30,2	28,8

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 107,6% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,7%), qurilishda – 109,0% (10,0 %), xizmatlar sohasida – 107,0 % ni (56,3%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,0 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,4 % (12,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (28,8 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'lishiga sanoat tarmog'i – 2,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 4,0 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida –1,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida –9,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.)ga ko'paydi


## 2022- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)





2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,1 % va qurilishda – 120,7 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 47,1 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 50,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

